

MILLIY MUSIQA SAN'ATINING GLOBALLASHUV JARAYONIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.

Maxamatova Marjona Azamatjonovna

Farg'ona davlat universiteti

Pedagogika-psixologiya va san'atshunoslik fakulteti

"Vokal va cholg'u ijrochiligi" kafedrası

Cholg'u ijrochiligi yo'nalishi 3-bosqich talabasi

marjonmaxamatova@gmail.com

+99890-408-24-01

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek milliy ijrochilik san'atida zamonaviy musiqiy terminologiyaning qo'llanilishi, uning milliy musiqa rivojidagi ahamiyati hamda an'anaviy ijro uslublarning yangi musiqiy qarashlar bilan uyg'unlashuvi tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy cholg'u ijrochiligida innovatsion yondashuvlar, ijro texnikalari va musiqashunoslikka oid zamonaviy tushunchalarning o'rni yoritib beriladi. Maqolada milliy musiqa san'atining bugungi globallashuv jarayonidagi rivojlanish istiqbollari ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: milliy ijrochilik, zamonaviy terminologiya, musiqa san'ati, cholg'u ijrosi, an'anaviy musiqa, innovatsion yondashuv, ijro texnikasi, musiqashunoslik, folklor, modernizatsiya.

“O'zbek milliy musiqa san'ati va maqom ijrochiligi xalqimizning bebaho ma'naviy merosi, milliy o'zligimizning ajralmas qismidir.

Uni asrab-avaylash, rivojlantirish va yosh avlodga yetkazish barchamizning muqaddas burchimizdir.”²¹

O'zbekiston respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev

KIRISH

Milliy madaniyat va san'atni asrab-avaylash, uni zamonaviy talqinlar asosida rivojlantirish masalasi har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, o'zbek milliy ijro san'ati ko'p asrlik tarixiy taraqqiyot davomida shakllanib, xalqning ma'naviy hayoti, urf-odatlarini, dunyoqarashi va estetik tafakkurini o'zida mujassamlashtirib kelgan noyob madaniy meros hisoblanadi. Milliy ijro san'ati nafaqat musiqa vositasida estetik zavq ulashadi, balki xalqning tarixi, ruhiyati, qadriyatlarini hamda milliy o'zligini aks ettiruvchi muhim omil sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu boisdan milliy ijro an'alarini ilmiy asosda o'rganish, ularni zamonaviy musiqiy

²¹ O'zbekiston respublikasi prezidenti – Sh.M.Mirziyoyev fikrlaridan lavha.

qarashlar bilan uyg'unlashtirish va bugungi avlod ongiga yetkazish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri sanaladi.

O'zbek xalq musiqa madaniyatida dutor, tanbur, gijjak, doira, nay, chang kabi milliy cholg'ular alohida o'rin tutadi. Ushbu cholg'ular vositasida ijro etilgan maqomlar, xalq kuy-qo'shiqlari va mumtoz asarlar xalqning ma'naviy merosi sifatida avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. Biroq zamonaviy davrga kelib, musiqa san'atida yangi texnologiyalar, yangi ijro uslublari hamda musiqiy terminologiyalar keng qo'llanilishi natijasida milliy ijro san'atiga yangicha qarash va tahlil qilish zarurati yuzaga kelmoqda. Chunki hozirgi musiqa ta'limi va ilmiy tadqiqotlarda milliy ijro usullarini xalqaro musiqiy atamalar orqali izohlash, ularning nazariy asoslarini yaratish va amaliy jihatdan boyitish muhim masalaga aylanmoqda.

Milliy ijro san'ati o'zining murakkab tuzilishi, uslubiy rang-barangligi va hissiy ifoda vositalarining boyligi bilan boshqa musiqa yo'nalishlaridan ajralib turadi. Ayniqsa, maqom san'ati, baxshichilik, lapar, yalla, katta ashula singari janrlar xalqning asriy tafakkuri mahsuli sifatida shakllangan bo'lib, ularda ijrochining individual mahorati va improvizatsion imkoniyatlari katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababli zamonaviy musiqiy atamalar yordamida milliy ijro san'atini tahlil qilish ijro jarayonidagi texnik, ritmik, melodik va emotsional xususiyatlarni chuqurroq anglash imkonini beradi. Bugungi kunda musiqa san'atida "interpretatsiya", "improvizatsiya", "artikulyatsiya", "intonatsiya", "dinamika", "tembr", "ritmika", "faktura", "polifoniya", "monodiya", "ansambl uyg'unligi" kabi zamonaviy musiqiy atamalar keng qo'llanilmoqda. Ushbu tushunchalar orqali milliy ijro usullarini ilmiy tahlil qilish milliy musiqaning professional darajadagi nazariy asoslarini boyitadi. Masalan, maqom ijrochiligidagi ohang bezaklarini zamonaviy musiqiy til orqali izohlash xalqaro ilmiy maydonda o'zbek milliy musiqasining o'rganilishiga xizmat qiladi. Bu esa milliy musiqamizning jahon madaniy merosi tizimidagi o'rnini yanada mustahkamlashga yordam beradi.

Musiqa san'ati inson qalbiga bevosita ta'sir qiluvchi estetik vosita sifatida har bir davrda insoniyat ma'naviyatining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Milliy ijro san'ati esa ana shu estetik ta'sirning eng yorqin namunalaridan biridir. Chunki milliy kuy va qo'shiqlarda xalqning quvonchi, dardi, orzu-intilishlari, tabiatga va hayotga bo'lgan munosabati o'z ifodasini topadi.²² Shu jihatdan qaraganda, milliy ijro san'atini zamonaviy musiqiy atamalar orqali tahlil qilish nafaqat nazariy ahamiyatga ega, balki yosh avlodning estetik didini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Mamlakatimizda mustaqillik yillarida milliy madaniyat va san'atni rivojlantirishga davlat darajasida katta e'tibor qaratildi. Ayniqsa, maqom san'ati, baxshichilik va folklor ijrochiligini rivojlantirish bo'yicha bir qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Natijada milliy ijro san'atini ilmiy jihatdan tadqiq etish, uni xalqaro miqyosda targ'ib qilish

²² O'zbek xalq musiqa ijodi — Toshkent: Musiqa nashriyoti, 2006.

hamda yosh ijrochilarni qo‘llab-quvvatlash borasida keng imkoniyatlar yaratildi. Bu esa milliy musiqa san‘atining yangi bosqichda rivojlanishiga zamin yaratmoqda.

Milliy ijro san‘ati insoniyat madaniy taraqqiyotining eng qadimiy ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Har bir xalq o‘zining tarixiy taraqqiyoti davomida musiqa orqali dunyoqarashi, ma‘naviyati va estetik qarashlarini ifodalab kelgan. O‘zbek xalqining milliy ijro san‘ati ham ana shunday boy tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, u asrlar davomida ustoz-shogird an‘analari asosida rivojlangan. Ayniqsa maqom san‘ati, xalq qo‘shiqdori, baxshichilik, dostonchilik hamda xalq cholg‘u ijrochiligi milliy musiqa madaniyatining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sanaladi.

Dastlabki davrlarda milliy ijro san‘ati asosan og‘zaki an‘ana asosida rivojlanganligi sababli unda ilmiy termin va nazariy tushunchalar deyarli qo‘llanilmagan. Ijrochilar musiqani “ohang”, “nola”, “pardoz”, “qochirim”, “zarb”, “usul”, “avj”, “sayqal” kabi xalqona tushunchalar orqali ifodalaganlar. Bu atamalar ko‘proq milliy ijro amaliyotining ichki xususiyatlarini yoritishga xizmat qilgan. Biroq vaqt o‘tishi bilan dunyo musiqa madaniyatining rivojlanishi, Sharq va G‘arb musiqa ilmining o‘zaro aloqalari natijasida zamonaviy musiqiy terminologiyalar milliy ijro san‘atiga ham kirib kela boshladi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib Markaziy Osiyoda professional musiqa ta‘limining shakllanishi zamonaviy musiqiy atamalarning keng tarqalishiga sabab bo‘ldi. Ayniqsa rus va Yevropa musiqa maktablarining ta‘siri natijasida “intonatsiya”, “ritm”, “temp”, “dinamika”, “registr”, “melodiya”, “garmoniya”, “faktura”, “polifoniya” kabi terminlar o‘zbek musiqa ilmiga kirib keldi. Bu davrda milliy ijrochilikni ilmiy asosda o‘rganish ishlari boshlangan bo‘lib, ko‘plab musiqashunos olimlar milliy musiqani zamonaviy ilmiy tilda tahlil qilishga harakat qilganlar.

XX asrning 30 - 40-yillarida konservatoriyalar va musiqa bilim yurtlarining tashkil etilishi milliy ijro san‘atining yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qildi. Shu davrdan boshlab o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri, nota yozuvi va akademik ijro uslublari shakllandi. Natijada milliy ijrochilikka oid ko‘plab tushunchalar Yevropa musiqashunosligi asosida talqin qilina boshlandi. Masalan, ilgari “ohang bezagi” deb yuritilgan ijro usullari zamonaviy tilda “melizmatika” yoki “ornamentika” deb atala boshladi. “Qochirim” tushunchasi esa improvizatsion bezak sifatida izohlandi.

Milliy ijro san‘atida zamonaviy atamalarning qo‘llanilishi, avvalo, musiqa ta‘limi tizimining rivojlanishi bilan bog‘liqdir. Chunki nota yozuvi, orkestr ijrosi va akademik sahna madaniyati milliy musiqani ilmiy asosda o‘rganishni talab etdi. Bu esa xalqona tushunchalarni xalqaro musiqiy terminologiyalar bilan uyg‘unlashtirish zaruratini tug‘dirdi.

Bugungi kunda milliy ijro san‘atini tahlil qilishda eng ko‘p qo‘llaniladigan zamonaviy musiqiy atamalardan biri - “interpretatsiya” hisoblanadi. Interpretatsiya bu ijrochining asarni o‘z hissiyoti, mahorati va badiiy qarashlari orqali talqin etishidir.

Milliy ijrochilikda interpretatsiya juda muhim o‘rin tutadi. Chunki bir xil maqom yoki xalq kuyini turli ijrochilar har xil ruhda ijro etishlari mumkin. Masalan, ayrim hofizlar maqomni sokin va lirik ruhda ijro etsa, boshqalari kuchli hissiyot va dramatik ohanglar bilan kuylaydi. Bu esa interpretatsiyaning individual xususiyat ekanligini ko‘rsatadi.

Yana bir muhim atama - “improvizatsiya”dir. Improvizatsiya ijrochining tayyor qolipdan tashqariga chiqib, erkin ijro yaratishidir. O‘zbek milliy ijro san’atida improvizatsiya qadimdan mavjud bo‘lib, ayniqsa maqom va baxshichilik san’atida keng uchraydi. Baxshilar doston ijrosi davomida matn va ohangni vaziyatga mos ravishda o‘zgartirishi mumkin. Maqom ijrochiligida esa hofiz yoki sozanda kuyga yangi bezak va qochirimlar qo‘shadi. Zamonaviy musiqa ilmida bu jarayon improvizatsion usul deb ataladi.

Milliy ijro san’atida “intonatsiya” atamasi ham muhim ahamiyatga ega. Intonatsiya - bu tovushning aniq va hissiy ifodali yangrashidir. O‘zbek xalq kuylarida intonatsion boyluk juda kuchli rivojlangan bo‘lib, ayniqsa maqom yo‘llarida yarim pardali nozik ohanglar katta mahorat talab qiladi. Shu sababli milliy ijrochilikda sof intonatsiya ijro sifati va badiiy ta’sirchanlikning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi.

“Artikulyatsiya” atamasi esa tovushlarni aniq va ravon ijro qilish usulini anglatadi. Dutor, tanbur yoki gijjak ijrosida artikulyatsiya juda muhimdir. Chunki har bir nota va ohangning ravshan eshinishi ijrochining texnik mahoratini belgilaydi. Milliy cholg‘ular ijrosida “legato”, “stakkato”, “non legato” kabi zamonaviy artikulyatsion usullar ham keng qo‘llanilmoqda.

“Dinamika” tushunchasi ham milliy ijro san’atining muhim tarkibiy qismidir. Dinamika tovush kuchining o‘zgarishini bildiradi. O‘zbek maqomlarida asta-sekin avjga chiqish va yana pasayish jarayoni kuchli emotsional ta’sir uyg‘otadi. Zamonaviy musiqada bu “crescendo” va “diminuendo” kabi atamalar bilan ifodalanadi.

Milliy ijro san’atida “tembr” masalasi ham alohida ahamiyatga ega. Tembr - tovushning o‘ziga xos rangidir. Har bir milliy cholg‘u o‘ziga xos tembrga ega. Masalan, dutorning mayin va iliq ovozi inson qalbiga sokinlik baxsh etsa, surnayning jarangdor tembri tantanavor kayfiyat uyg‘otadi. Zamonaviy musiqashunoslikda tembr ijro xarakterini belgilovchi asosiy vositalardan biri sifatida qaraladi.

“Ritmika” va “metro-ritmik tizim” tushunchalari ham milliy musiqada keng uchraydi. Ayniqsa doira usullari va maqom ritmlari murakkab ritmik tuzilishga ega. O‘zbek xalq musiqasidagi “ufar”, “samoyi”, “talqin”, “qashqarcha” kabi usullar ritmik jihatdan boy va rang-barang hisoblanadi. Zamonaviy tahlilda ular metroritmika asosida o‘rganiladi.²³

Bugungi kunda milliy ijro san’ati zamonaviy texnologiyalar va xalqaro musiqa madaniyati bilan uyg‘un holda rivojlanmoqda. Elektron yozuvlar, studiya ishlovlari, orkestrlashtirish jarayonlari ham milliy musiqaning yangi talqinlarini yuzaga keltirmoqda. Shu sababli zamonaviy musiqiy atamalar milliy ijro san’atini ilmiy

²³ O‘zbek xalq musiqa ijodi — Toshkent: Musiqa nashriyoti, 2006.

jihtadan chuqur o'rganish va xalqaro miqyosda targ'ib qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Demak, milliy ijro san'atida zamonaviy musiqiy atamalarning kirib kelishi tarixiy taraqqiyot, professional musiqa ta'limi va xalqaro musiqiy aloqalar natijasida shakllangan. Ushbu atamalar milliy musiqaning nazariy asoslarini boyitib, uning badiiy-estetik xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini bermoqda. Natijada milliy ijro san'ati bugungi kunda nafaqat milliy qadriyat, balki jahon musiqa madaniyatining muhim tarkibiy qismi sifatida rivojlanib bormoqda.

Milliy ijro san'atida zamonaviy musiqiy atamalarning qo'llanilishi bugungi musiqa madaniyati rivojida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki zamonaviy terminologiyalar milliy musiqani ilmiy asosda o'rganish, tahlil qilish va xalqaro darajada targ'ib etish imkoniyatini kengaytirdi.²⁴ Avvallari milliy ijro san'ati ko'proq ustoz-shogird an'analari orqali og'zaki tarzda o'rgatilgan bo'lsa, bugungi kunda u nazariy jihatdan ham chuqur tadqiq qilinmoqda. Bu esa milliy musiqaning yanada mukammal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Eng avvalo, zamonaviy musiqiy atamalarning kirib kelishi milliy ijro san'atining ilmiy asoslarini mustahkamladi. Chunki "intonatsiya", "artikulyatsiya", "dinamika", "interpretatsiya", "improvizatsiya", "ritmika" kabi terminlar orqali ijro jarayonidagi nozik jihatlar aniq ifodalanadigan bo'ldi. Natijada milliy musiqa faqat eshitish orqali emas, balki ilmiy tahlil asosida ham o'rganila boshlandi. Bu esa musiqa ilmi va amaliyoti o'rtasidagi bog'liqlikni kuchaytirdi.

Zamonaviy atamalarning yana bir muhim foydasi - milliy ijro san'atining xalqaro maydonda tushunarli bo'lishini ta'minlaganidir. Chunki bugungi globallashuv davrida har bir xalq o'z madaniyatini dunyoga tanitishga intiladi. Agar milliy musiqa xalqaro musiqiy terminologiyalar asosida izohlansa, xorijiy musiqashunoslar va ijrochilar uni osonroq tushunadi. Masalan, maqomdagi "qochirim" yoki "nola" kabi tushunchalarni "ornamentika" yoki "improvizatsiya" tarzida talqin qilish xalqaro ilmiy aloqalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Milliy ijro san'atining zamonaviy talqini yosh ijrochilar uchun ham katta imkoniyat yaratmoqda. Chunki hozirgi musiqa ta'limida nazariya va amaliyot birgalikda olib boriladi. Talabalar milliy kuylarni ijro qilish bilan birga ularning texnik, ritmik va emotsional xususiyatlarini ham o'rganadi. Bu esa ijrochining mahoratini oshiradi, sahna madaniyatini shakllantiradi va professional ijrochilik darajasiga olib chiqadi.

Zamonaviy musiqiy terminologiyalar milliy cholg'ular imkoniyatlarini yanada keng ochib berishga ham xizmat qilmoqda. Masalan, dutor yoki gijjak ijrosidagi tembr, dinamika va artikulyatsion imkoniyatlar ilmiy tahlil qilinishi natijasida yangi ijro usullari shakllanmoqda. Orkestr ijrochiligida milliy cholg'ularning uyg'unligi kuchayib,

²⁴ O'zbekiston davlat konservatoriyasi. Milliy cholg'u ijrochiligi va zamonaviy talqin masalalari, - ilmiy-uslubiy qo'llanma, Toshkent, 2021

zamonaviy aranjirovkalar paydo bo'lmogda. Bu esa milliy musiqaning zamon bilan hamnafas rivojlanayotganini ko'rsatadi.

Yana bir muhim jihat shundaki, zamonaviylik milliy ijro san'atining saqlanishiga ham katta yordam bermoqda. Ilgari ko'plab kuy va maqomlar faqat ustozlardan eshitish orqali saqlanib kelgan bo'lsa, bugungi kunda ular nota yozuvlari, audio va video yozuvlar orqali arxivlashtirilmoqda. Zamonaviy texnologiyalar yordamida milliy ijro namunalarini kelajak avlodlarga asl holicha yetkazish imkoniyati paydo bo'ldi. Bu esa milliy merosning yo'qolib ketmasligini ta'minlaydi. Shuningdek, zamonaviy musiqiy atamalar asosida olib borilgan tahlillar milliy ijro san'atining estetik qiymatini yanada chuqurroq ochib bermoqda. Chunki har bir kuy yoki maqomning ichki tuzilishi, hissiy ta'siri va badiiy ifoda vositalari ilmiy asosda tushuntirilmoqda. Natijada tinglovchi ham musiqani oddiy eshituvchi emas, balki uning mazmunini tushunuvchi estetik tomoshabinga aylanadi.

Bugungi kunda milliy ijro san'ati zamonaviy sahna madaniyati bilan uyg'unlashib bormoqda. Konsert dasturlari, xalqaro festivallar va tanlovlarda milliy cholg'ular zamonaviy orkestr va texnologiyalar bilan birgalikda namoyish etilmoqda. Bu esa yoshlarning milliy musiqaga bo'lgan qiziqishini oshirmoqda. Ayniqsa internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali milliy kuylarning keng tarqalishi ularning ommaviyligini yanada kuchaytirmoqda.

Zamonaviylikning yana bir foydali tomoni - turli xalqlar musiqasi bilan ijodiy integratsiyaning kuchayishidir. Hozirgi davrda o'zbek milliy musiqasi jaz, simfonik, estrada va etno yo'nalishlari bilan uyg'unlashmoqda. Bu esa yangi musiqiy shakl va uslublarning paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Shu orqali milliy ijro san'ati nafaqat an'anaviy, balki innovatsion yo'nalishda ham rivojlanmoqda.

XULOSA

Milliy ijro san'ati xalqimizning asrlar davomida shakllangan bebaho ma'naviy merosi hisoblanadi. Unda xalqning tarixi, ruhiyati, estetik qarashlari hamda milliy qadriyatlari mujassam bo'lgan. Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot davrida milliy ijro san'atini zamonaviy musiqiy atamalar asosida talqin qilish uning ilmiy va amaliy ahamiyatini yanada oshirmoqda. Chunki zamonaviy terminologiyalar orqali milliy musiqaning ichki tuzilishi, ijro usullari, ritmik va emotsional xususiyatlari chuqurroq tahlil qilinmoqda.

Tadqiqot davomida ma'lum bo'ldiki, zamonaviy musiqiy atamalar milliy ijro san'atiga asosan XX asrda professional musiqa ta'limi va Yevropa musiqashunosligi ta'siri orqali kirib kelgan. Natijada milliy ijrochilik ilmiy asosda o'rganila boshlagan va uning nazariy tizimi shakllangan. "Interpretatsiya", "intonatsiya", "artikulyatsiya", "dinamika", "improvizatsiya", "tembr" kabi tushunchalar milliy ijro jarayonidagi nozik jihatlarni ilmiy asosda izohlash imkonini yaratgan. Shuningdek, zamonaviy talqinlar milliy ijro san'atining xalqaro maydondagi nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda. Milliy

musiqa xalqaro terminologiyalar asosida izohlangani sababli xorijiy musiqashunoslar va ijrochilar tomonidan ham kengroq tushunilmoqda va e'tirof etilmoqda. Bu esa o'zbek milliy musiqasining jahon madaniy merosi tarkibidagi o'rnini mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, zamonaviylik milliy ijro san'atining mazmun va mohiyatini yo'qotmagan holda, aksincha uning rivojlanishiga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Zamonaviy texnologiyalar, nota yozuvlari, audio-video arxivlar hamda orkestrlashtirish jarayonlari milliy merosning saqlanishi va kelajak avlodlarga yetib borishini ta'minlamoqda. Shu bilan birga, yosh ijrochilar uchun milliy ijrochilikni professional darajada egallash imkoniyati kengaymoqda.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, milliy ijro san'atining zamonaviy musiqiy atamalar orqali talqin qilinishi milliy musiqa madaniyatining ilmiy, estetik va amaliy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayon milliy merosni asrab-avaylash, uni zamon talablariga mos ravishda rivojlantirish hamda xalqaro miqyosda targ'ib qilishning samarali vositasi hisoblanadi. Milliy ijro san'ati va zamonaviy musiqiy tafakkur uyg'unligi esa kelajakda o'zbek musiqa madaniyatining yanada yuksalishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston respublikasi prezidenti - Sh.M.Mirziyoyev fikri.
2. S.Pardayev. "O'zbek xalq musiqa ijodi", – Samarqand, 2024.
3. O'zbekiston davlat konservatoriyasi. Milliy cholg'u ijrochiligi va zamonaviy talqin masalalari – ilmiy - uslubiy qo'llanma, Toshkent, 2021.
4. B.X.Madrimov. "O'zbek musiqasi tarixi", - Toshkent, 2018.
5. O.E.Xolmirzayev. "Ansambl ijrochilig", - Jizzax, 2018.
6. O. A. Ibrohimov, G'. M. Xudoyev. "Musiq tarixi",- Toshkent, 2018.